

Barqaror rivojlanish va shaharsozlik sohasida hamkorlik masalalari muhokama qilindi

Bir kvadrat metrdan 15 kilogramgacha qo'ziqorin olinyapti

Tabiiy gaz uchun qishki mavsumdagi limit barcha hududlarda 15-martgacha uzaytirildi

Zarafshon milliy tabiat bog'ida - chiyabo'ri



1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan

Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 4-mart, chorshanba,
20 (24.200)-son

O'zbek xalq
maqoli

Yer egasi
bo'lma,
mehnat egasi
bo'l

Agrar tarmoqning eng yaxshilari AGROPRO EXPO da jam bo'ldi

- O'zbekiston qishloq xo'jaligi yiliga 25 milliard AQSh dollaridan ortiq mahsulot ishlab chiqaradi.
- Mamlakatda ishlab chiqarilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 90 foizdan ortig'i nodavlat sektor hissasiga to'g'ri keladi.
- Respublikada 85 mingdan ortiq fermer xo'jaligi faoliyat yuritib, ular 4 million gektardan ziyod qishloq xo'jaligi yerlarini qamrab olgan.
- Bugungi kunda O'zbekistonda 468 ta agroklastar tashkil etilgan bo'lib, dehqonchilik, bog'dorchilik, paxtachilik va qayta ishlash yo'nalishlarini o'z ichiga oladi.



Raqamlardan ko'rinib turibdiki, agrar tarmoq O'zbekiston iqtisodiyotining ajralmas qismi hisoblanadi. Shu bois mazkur sohadagi yangiliklar, innovatsion ishlanmalar, ilmiy yechimlar, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, ishlab chiqarish, qayta ishlash va eksport hajmini oshirish borasidagi jarayonlardagi yutuqlar haqida ma'lumot beradigan ko'rgazmalar juda zarur.

Jomboy tumanidagi SOF EXPO ko'rgazmalar majmuasida "AGROPRO EXPO – 2026" xalqaro qishloq xo'jaligi ko'rgazmasi ish boshladi. 3-5-mart kunlariga mo'ljallangan ko'rgazmada ishlab chiqaruvchi, yetkazib beruvchi, agrotexnologik kompaniyalar, moliyaviy institutlar hamda agrar soha mutaxassislari ishtirok etmoqda.

Bir necha yillar avval shu kabi ko'rgazmalar asosan fermerlar tomonidan keltirilgan kartoshka-sabzavot, ular, parrandachilik va chorvachilik mahsulotlari, ular orasida kam sonli qayta ishlangan mahsulotlar namoyishi bilan o'tkazilardi. Bu yilgi ko'rgazmada bunday mahsulotlarni deyarli ko'rmadim, asosan zamonaviy agrotexnologiyalar va innovatsion yechimlar, qishloq xo'jaligi texnikasi va avtomatlashtirilgan tizimlar, sug'orish uskunalari, urug'lik, agroximikatsiyalar va laboratoriya uskunalari, mahsulotlarni saqlash va logistika yechimlari, chorvachilik, parrandachilik va boshqa turdagi qayta ishlash uskunalari namoyish etilmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan yilgi ko'rgazmada 140 dan ortiq kompaniya ishtirok etgan va 4500 dan ziyod kuzatuvchi tashrif buyurgan. Joriy yilda esa 5 mingdan ortiq mutaxassis va Yevropa, Osiyo hamda Yaqin Sharq mamlakatlaridan ishtirokchilar kelgan. Shuningdek, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 100 dan ortiq tadbirkordan tashqari Turkiya, Germaniya, Rossiya, Chexiya, Belarus, Xitoy, Gollandiya, Latviya, Qozog'iston, Eron, Ukraina, Polsha va boshqa davlatlarning kompaniyalari o'z

mahsulotlari bilan ishtirok etmoqda.

Ko'rgazma ochilishida viloyat hokimi A.Boboyev ishtirokchilarni tabriklati va tadbir ishiga omad tiladi. Shundan so'ng "Agrosanoat sohasida eng yaxshi startap", "Agrosanoat sohasida eng yaxshi ayollar loyihasi", "Eng yaxshi eksportga yo'naltirilgan xo'jalik", "Eng namunali fermer xo'jalik", "Eng yaxshi dehqon xo'jalik", "Eng yosh fermer xo'jalik" va boshqa yo'nalishlarda faollar taqdirlandi. Ilmiy ishlanmalar va innovatsiyani agrar sohaga tatbiq etgan loyihalarga alohida e'tibor qaratildi.

Besh yildan buyon tuganakdan yangi va sifatli kartoshka urug'ligi yetishtirish loyihasi ustida ish olib boramiz, - deydi Oqdaryo tumanidagi "GOLDEN SEED SAMARKAND" qo'shma korxonasi direktori o'rinbosari Iskandar Mahmudov. - O'tgan yili Janubiy koreyalik tadbirkorlar bilan hamkorlikda ilg'or in-vitro texnologiyasi uslubida kartoshka ko'chatlarini yetishtirish laboratoriyasini tashkil etdik. Chunki ancha yillardan buyon xorijdan sifatli kartoshka urug'i kelmay qo'ydi, qimmat narxga keltirilganlarining aksariyati sifat-siz va kam hosilli bo'ldi. Bu esa aholi ehtiyojini qoplamaydi, daromaddan xarajat ortib ketishiga olib keldi. Bizning loyihamizda virusga uchramagan sifatli kartoshka urug'idan tuganak olinib, uch oy davomida parvarishlanadi. So'ngra undan mikro tuganak, keyin makro tuganak olinadi. To'rtinchi bosqichda yetishtirilgan hosildan "Super" va "Super elita" kartoshka urug'i yetishtiramiz. Bu urug' gektaridan 35 tonnadan 70 tonnagacha hosil olish imkonini beradi.

Ko'rgazma doirasida taqdimotlar, xalqaro hamkorlar ishtirokida B2B uchrashuvlar, agrar bozorlarni rivojlantirish strategiyalari bo'yicha muhokamalar, soha ekspertlari bilan davra suhbatlari o'tkazish rejalashtirilgan.

O'.QO'ZIBOYEV.

Kun mavzusi

"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida A-378 avtomobil yo'lining Nurobod va Past Darg'om tumanlari hududidan o'tgan qismida yo'lining ikki tomonida 10 ming tupdan ortiq daraxt ko'chatlari o'tqazildi.

Dam olish kunlarida mazkur hududdagi Oqsoy, Mehnatkash, Elbek mahallalarida korxona va tashkilotlar, aholi tomonidan hashar uyushtirilib, daraxt ko'chatlari ekildi. Bu hududlar asosan, dasht yerlardan iborat bo'lib, bu yerda yoz oylarida jazirama issiq hamda chang-to'zonlar kuzatiladi. Shu sababli hududda ekologik muhitni yaxshilash, chang va zararli chiqindilar miqdorini kamaytirish, yashil hududlarni kengaytirish hamda aholi uchun obod va fayzli maskanlarni yaratish maqsadida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida manzarali daraxtlardan iborat "yashil belbog'"lar, shuningdek, pista va bodomzorlar yaratilmoqda.

Ko'chat ekish jarayonida viloyat hokimi Adiz Boboyev ham ishtirok etib, yurtimizni bog'u bo'stonga aylantirish, atrof-muhit musaffoligini ta'minlashga hissa qo'shish har bir yurtodoshimizning burchi ekanligini ta'kidladi, ezgu niyat bilan ko'chat o'tqazdi.



bahorgi mavsumda **6,9 million** tup ko'chat ekiladi

Viloyat rahbari hududlar mas'ullari va mutasaddilarga ekilgan ko'chatlarni sug'orish tizimini samarali yo'lga qo'yish va parvarishlash bo'yicha topshiriqlar berdi.

Viloyat ekologiya va iqlim o'zgarishi boshqarmasining ma'lumotlariga ko'ra, joriy bahorgi mavsumda viloyatda "Yashil makon" loyihasi doirasida 6,9 million tup mevali va manzarali daraxt, buta ko'chatlari ekish ko'zda tutilgan. Ayni paytda viloyatning bar-

cha hududlarida bu jarayon davom etmoqda.

Viloyatdagi o'rmon xo'jaliklari, ko'chatchilikka ixtisoslashtirilgan 50 dan ortiq fermer xo'jaligi hamda 1000 ga yaqin aholi xonadonlarida 13,2 million tup ko'chat tayyorlangan. Bu ko'chatlar dehqon bozorlari, markaziy yo'l yoqalarida tashkil etilgan ko'chat yarmarka savdolari orqali sotilmoqda, buyurtma asosida mamlakatimiz bo'yab yetkazib berilmoqda.

"Tashabbusli budget – 2026"

birinchi mavsumda 45 ta sheriklik loyihasi tushdi

2025-yilgi "Tashabbusli budget" jarayonlarining 1-mavsumida viloyatimizdan 217 ta loyiha g'oliblikni qo'lga kiritgan va 319,1 milliard so'm mablag' ajratilgan. Loyihalarning 118 tasi (54 foizi) yo'llarni ta'mirlash, 53 tasi (24 foizi) maktablarni ta'mirlash va jihozlash, 5 tasi (2 foizi) bog'chalarni ta'mirlash, 19 tasi (9 foizi) sog'liqli saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash bilan bog'liq bo'lgan. Shuningdek, 4 ta elektr energiyasi, 6 ta sport bilan bog'liq, 12 ta boshqa loyihalar bor edi.

MOLIYADAGI MAXFIY MA'LUMOTLAR

Mazkur jarayonning nazorati va muvofiqlashtirish viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi vakolatiga berilgan. Ammo afsuski, bir necha marotaba murojaat qilishimizga qaramasdan boshqarma mas'ullaridan 2026-yilgi "Tashabbusli budget", undagi o'zgarishlar, kiritilgan yangiliklar, loyihalar va umuman, jarayon haqida ma'lumot olishning imkonini bo'lmadi.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan tashkil etilgan mazkur tizimda joriy yildan ancha-muncha o'zgarishlar kiritildi, mablag'lar miqdori o'zgardi, ovoz berish jarayonlari, ko'rsatilgan loyiha qiymatining 50 foizini tashabbuskorlar to'laganda, qolgan qismini davlat tomonidan moliyalashtirish tizimi joriy etildi. Ammo bu kabi ma'lumotlar maxfiylashtirilgan shekilli viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi bir necha haftada ham buni ochiq qilmadi.

"Open budget" portali ma'lumotlariga ko'ra, "Tashabbusli budget" jarayonlarida ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni aholi va davlat o'rtasida sheriklik asosida moliyalashtirish amaliyoti joriy etildi.

Endilikda tashabbuskor aholi tomonidan loyihalar qiymatining 50 foizi ixtiyoriy ravishda moliyalashtirilgan loyihalar g'olib deb topiladi va qolgan 50 foizi respublika budjetidan moliyalashtiriladi. Mazkur yo'nalishda viloyatimizdan 45 ta sheriklik loyihasi kelib tushgan. Bu esa ushbu loyihalar ovoz berish jarayoni boshlanmasdan g'olib bo'lish imkonini beradi.

Joriy yilgi jarayonda birinchi bosqich uchun viloyat bo'yicha 1832 ta loyiha takliflari bildirilgan va shundan 300 tasi saralab olingan.

Respublika bo'yicha joriy yilgi "Tashabbusli budget" loyihalari uchun 2 trillion 188 milliard 242 million so'm mablag' ajratilgan bo'lsa, viloyatimiz aholisi tomonidan tashabbus bilan ko'rsatilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun 233 milliard 676 million so'm mablag' yo'naltiriladi.

Xabaringiz bor, joriy yildan qonunchilikka ko'ra, "Tashabbusli budget" jarayonlarida ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni aholi va davlat o'rtasida sheriklik asosida moliyalashtirish amaliyoti joriy etildi.

Endilikda tashabbuskor aholi tomonidan loyihalar qiymatining 50 foizi ixtiyoriy ravishda moliyalashtirilgan loyihalar g'olib deb topiladi va qolgan 50 foizi respublika budjetidan moliyalashtiriladi. Mazkur yo'nalishda viloyatimizdan 45 ta sheriklik loyihasi kelib tushgan. Bu esa ushbu loyihalar ovoz berish jarayoni boshlanmasdan g'olib bo'lish imkonini beradi.

O'ktam XUDOYBERDIYEV.

13-14-mart kunlari yurtimizda "Yurt obodligi, avvalo, mahalladan boshlanadi!" shiori ostida umumxalq xayriya hashari o'tkaziladi

Jamoat xavfsizligini ta'minlash masalasi bugun faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati bilan cheklanib qolmaydi. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, jinoyatchilikning oldini olish, aholi kayfiyati va xavfsiz muhitni ta'minlashda mahalla, jamoatchilik va fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Samarqand viloyatidagi oxirgi tahlillar ham aynan shu yondashuvning dolzarbligini tasdiqlamoqda.

Ma'muriy nazorat

yoki jazo choralari
asosiy yechim emas

Ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yil davomida viloyatda jami 15998 ta jinoyat hisobga olingan bo'lib, bu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan 6596 taga oshgan. Jinoyatlarning 7601 tasi, ya'ni qariyb yarmi axborot texnologiyalari sohasiga to'g'ri kelishi jinoyatchilik shakllarining o'zgarib borayotganini ko'rsatadi. Bu holat jamoat xavfsizligini ta'minlashda faqat jismoniy nazorat emas, balki aholining huquqiy va raqamli savodxonligini oshirish, profilaktik targ'ibot ishlarini kuchaytirish zarurligini ham anglatadi. Mazkur yo'nalishda fuqarolik jamiyati institutlari aholi bilan bevosita ishlash imkoniyatiga ega muhim bo'g'in sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu bilan birga, prokuratura organlari 429 ta jinoyatning avval hisobdan yashirilganini aniqlab, ular markazlashgan jinoyatlar hisobotiga kiritilganini ma'lum qildi. Bu holat jinoyatchilikka qarshi kurashda ochiqlik va shaffoflikka asoslangan yondashuv kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Jamoatchilik nazorati, ommaviy axborot vositalari hamda fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan bildirilayotgan fikr va ogohlantiruvchi ma'lumotlar ushbu jarayonda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Viloyatda jinoyat sodir etilgan mahallalar soni oyma-oy kamayib bormoqda. Xususan, "qizil" toifaga kiritilgan mahallalar soni 118 tani tashkil etib, 2024-yilga nisbatan sezilarli kamayish kuzatilganini ko'rsatadi. Tegishli idoralar bilan mahallalar, jamoatchilik faollari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida yo'lga qo'yilgan hamkorlik natijasida viloyatda qotillik, bosqinchilik, nomusga tegish, o'lim bilan bog'liq yo'l-transport hodisalari kabi aholi kayfiyati va jamoat xavfsizligiga bevosita ta'sir etuvchi og'ir jinoyatlar kamayishiga erishilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2025-yilda sodir etilgan qotillik va tan jarohati yetkazish jinoyatlarining salmoqli qismi oila-turmush munosabatlariidagi kelishmovchiliklar bilan bog'liq bo'lgan. Xususan, zo'ravonlik va tan jarohati yetkazish jinoyatlarining 32 foizi hamda qotilliklarning 51 foizi aynan oilaviy nizolar



oqibatida sodir etilgan. Bu holat jamoat xavfsizligi masalasi oiladagi ma'naviy-ruhiy muhit bilan bevosita bog'liq ekanini ko'rsatadi. Ayni shu nuqtada fuqarolik jamiyati institutlarining mediatorlik, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, maslahat va profilaktik targ'ibot ishlaridagi ishtiroki alohida ahamiyat kasb etadi.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2026-yil 5-yanvarda imzolangan qarorga muvofiq, mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish bo'yicha manzilli ishlash tizimi joriy etildi. Ushbu yondashuv jamoat xavfsizligini ta'minlashda mahalla va jamoatchilikni asosiy bo'g'in sifatida belgilab, ayollar jinoyatchiligi, nizoli oilalar, ijtimoiy xavf guruhlari bilan ishlashda sohaviy idoralar bilan bir qatorda jamoatchilik tuzilmalari ishtirokini ham nazarda tutadi. Bu esa profilaktik ishlar samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, jamoat xavfsizligini ta'minlash faqat ma'muriy nazorat yoki jazo choralari bilan cheklanib qolmaydi. Mahalla, oila va jamoatchilik darajasida barvaqt profilaktika ishlarini yo'lga qo'yish, aholi bilan ochiq muloqot olib borish hamda fuqarolik jamiyati institutlarini ushbu jarayonga faol jalb etish orqali barqaror va ishonchli xavfsizlik muhitini shakllantirish mumkin.

Foteh RAHMATOV,
Demokratik jarayonlarni tahlil qilish
markazi viloyat hududiy bo'linmasi
bosh mutaxassisi.

Viloyatimizda mahallalarni ixtisoslashtirish orqali aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bunda mahalla o'ziga xos imkoniyati va tabiiy resurslaridan kelib chiqib, aniq bir yo'nalishga ixtisoslashadi.

Past Darg'om tumanidagi Joul Qosim mahallasida 214 oila kambag'al oila sifatida qayd etilgan. Shu paytgacha 18 oilaga subsidiya asosida asbob-uskuna olib berildi, 93 nafar xotin-qiz kasb-hunarga o'qitilib, 94 oilaga 1 milliard 723 million so'm imtiyozli kreditlar ajratildi. Shuningdek, aholini tadbirkorlikka yo'naltirish orqali 400 ga yaqin yangi ish o'rni yaratildi.

Mahallada eksportbop gilos yetishtirish asosiy drayverlardan biri – 35 foiz aholi, ya'ni 246 xonadon shu ish bilan shug'ullanadi, - deydi Joul Qosim mahallasi hokim yordamchisi Jahongir Normo'minov. - Bir tup gilosdan o'rtacha 1,3 million so'm, bitta xonadon 60-70 million so'm daromad qiladi. Mahalla-mizning ixtisoslashuvini chuqurlashtirish maqsadida yirik tadbirkorlar tomonidan aholi gilos ko'chatlari bilan ta'minlanadi. Joriy yilda ixtisoslashuvni 70 foizga yetkazishni maqsad qilganmiz.

Mahallada ikkinchi drayver yo'nalish - qurilish materiallari, ya'ni beton quvurlari ishlab chiqarish hisoblanadi. 61 ta xonadon ushbu yo'nalishda ishlab, daromad qilmoqda. Joriy yilda bu yo'nalishni yanada kengaytirib, kambag'al oilalar hisobidan 60 dan ortiq tadbirkorlik subyekti tashkil etiladi va 200 ga yaqin ish o'rni yaratiladi.

- Ko'p yil xorijga borib ishladim, - deydi Elbek Abdug'aniyev. - Ammo o'z uyimga, oilang bag'rida ishlash boshqacha baribir. Mahalla yor-

Joul Qosim da hamma ishli bo'ladi



damida beton quvur ishlab chiqarish uchun maxsus qoliqlar olib kelib, ish boshladim. Yonimga qishlog'imizning ikkita ishsiz yigitlarini olganman. Birgalikda oyiga 200 donadan ziyod quvur tayyorlaymiz, o'n million so'mdan ziyod daromad qilamiz.

Shunday faoliyatni yo'lga qo'ygan "Black optra" MChJga bankdan 90 million so'm imtiyozli kredit ajratildi. Natijada 5 ta ish o'rni yaratilib, kambag'allik reestrtdagi 5 ta oila a'zolarining bandligi ta'minlandi. Shuningdek, "Amir Imona Sardor" oilaviy korxonasi tashabbus bilan chiqib, ijtimoiy reestrtdagi oilalar bilan kelishgan holda kooperatsiya asosida beton quvurlar ishlab chiqarishni rejalashtirgan.

- Joriy yil mahallamiz to'liq kambag'allikdan xoli hududga aylanadi, - deydi mahalla raisi Shomil Pittayev. - Yaratilgan imkoniyatlardan foyda-

lanib, mahallamizning kambag'allik darajasini 29,1 foizdan 3,1 foizga tushirishga erishdik.

Mahallaning Hosilot qishlog'i "Samarqand-Juma" yo'li yoqasida joylashgani hisobiga "yo'l bo'yi" xizmat ko'rsatish va servis yo'nalishida ixtisoslashuvni kengaytirish va aholi daromadini oshirish ko'zda tutilgan. Bu yerda mikroloiyahalar asosida yuzdan ortiq fuqaroning bandligini ta'minlab, aholining daromadini oshirish mumkin.

Hududda yo'l yoqasida joylashgan 30 dan ziyod xonadon egalari non, patir, somsa va pichak tayyorlab sotish bilan shug'ullanadi. Kuniga minglab yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish orqali yuzdan ziyod aholi bandligi ta'minlangan.

Dilmurod TO'XTAYEV.
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

BU FAKT!

Milliy statistika qo'mitasining 2025-yilda o'tkazilgan uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, O'zbekistonda uch bolali uy xo'jaliklari ulushi 19,6 foizni tashkil etdi. 3 bolali oilalar ulushi o'tgan yillarda quyidagicha:
2015-yil — 15,6 %; 2020-yil — 16,9 %; 2024-yil — 18,3 %; 2025-yil — 19,6 %.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida

qamrov oshdimi

Mamlakatimizda yildan-yilga aholi sonining ko'payib borayotgani maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bo'lgan ehtiyojning ham oshishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois bugun davlat qaramog'idan tashqari xususiy, davlat-sheriklik asosidagi yoki oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatiga keng imkoniyatlar berilmoqda.

Fakt va raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, birgina 2025-yilda viloyatda 132 ta, ya'ni 11 ta davlat, 8 ta davlat-xususiy sheriklik asosidagi va 113 ta oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti ochilgan. Buning hisobiga viloyatda qo'shimcha 11761 nafar bola maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingan. Bu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan 3,5 foizga oshgan. Bugun viloyatda maktabgacha yoshda bo'lgan bolalarning 75,6 foizi maktabgacha ta'limga qamrab olingan.

- Maktabgacha ta'limning muqobil shakllarini kengaytirish maqsadida qamrov darajasi past bo'lgan olis hududlarda, jumladan, Bulung'ur tumanidagi 51-umumiy o'rta ta'lim maktabida 2 ta, 70-umumiy o'rta ta'lim maktabida 2 ta hamda Kattaqo'rg'on tumanidagi 104-umumiy o'rta ta'lim maktabida 3 ta, 67-umumiy o'rta ta'lim maktabida 3 ta, jami 10 ta guruhi "Aqlvoy" loyihasi doirasida tashkil etildi, - deydi viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi bo'limi boshlig'i Furqat Jiyanov. - Shuningdek, zamonaviy talablarga javob beradigan va qayta jihozlangan 2 ta ISUZU avtobusi negizida 174 nafar bog'cha yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Jahon banki hamkorligida viloyatdagi 763 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlariga umumiy qiymati 8 milliard 150 million so'm bo'lgan 763 ta o'yin maydonchasi hamda tayyorlov guruhlari uchun stol-stullar yetkazib berilgan.

Toyloq "Ilk rivojlanish markazi" tajribasi asosida Ishtixon, Oqdaryo, Past Darg'om va Samarqand tumanlarida ham shunday markazlar faoliyati yo'lga qo'yilib, qo'shimcha 1500 o'rin yaratilgan.

Viloyatda 2026-yilda viloyatdagi mavjud 13 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari rekonstruksiya qilinib, 1,5 mingga yaqin yangi quvvat yaratiladi. Shuningdek, 3 ta maktabgacha davlat ta'lim tashkilotlari mukammal ta'mirlanadi. 19 ta davlat-xususiy sheriklik asosida, 139 ta oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari tashkil qilinadi. Bundan tashqari, Urgut tumanida 10 ta yangi zamonaviy 1200 o'rinni davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari qurilib, qamrov darajasi 73,6 foizga yetkaziladi.

Xurshida ERGASheVA.

Insoniylik, axloq, ijodkorlik va tasavvur

agrar ta'limni modernizatsiya qiladi(mi?)

Agrar va oziq-ovqat sohasining hozirgi rivojlanish bosqichi mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligiga nisbatan yangi talablarni shakllantirmoqda. Endilikda mutaxassis faqat texnologiyalarni biluvchi ijrochi emas, balki ijtimoiy jarayonlarni anglaydigan, axloqiy mas'uliyatni his qiladigan va kelajak oqibatlarini oldindan baholay oladigan shaxs sifatida shakllanishi lozim. Shu sababli ta'lim jarayonida inson omiliga tayanuvchi yondashuvlarni tizimli ravishda joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda. Mazkur ehtiyojlar asosida HECI (Humanity, Ethics, Creativity, Imagination) (insoniylik, axloq, ijodkorlik va tasavvur) tamoyillariga tayangan konseptual yondashuv agrar ta'limni modernizatsiya qilishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari zamonaviy jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib kelmoqda. Ilm-fan, sun'iy intellekt, robototexnika va biotexnologiya sohalaridagi taraqqiyot inson hayoti sifatini oshirayotgan bo'lsa-da, ayni paytda axloqiy inqiroz, befarqlik va inson qadrlarining pasayishi kabi muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Shu nuqtai nazardan, texnologik taraqqiyotni insoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

HECI YONDASHUVLARINING O'ZI NIMA?

Ushbu konseptual modelning bosh maqsadi agrar va oziq-ovqat yo'nalishlarida ta'lim olayotgan talabalar hamda sohaga daxldor mutaxassis va pedagoglarda kasbiy faoliyatni insonparvarlik qadriyatlariga asosida tashkil etish, axloqiy tanlov qilish, ijodiy yechimlar ishlab chiqish va uzoq muddatli strategik fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishdan

iborat. HECI yondashuvi to'rt asosiy komponentga taylanadi: insoniylik, axloq, ijodkorlik va tasavvur. Ushbu yondashuv insonni faqat texnologik jarayonlarning ishtirokchisi emas, balki ma'naviy mas'uliyat egasi sifatida ko'radi. Ta'kidlanganidek, HECI konsepsiyasi jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan yangi davr chaqirig'idir. Insoniylik insonning mehr-shafqat, adolat va mas'uliyat kabi fazilatlarini qamrab olsa, axloq inson faoliyatidagi me'yori va chegaralarni belgilaydi. Ijodkorlik innovatsion yechimlar yaratishga turkib bo'lsa, tasavvur kelajak oqibatlarini oldindan anglash imkonini beradi.

HECI VA STEM UYG'UNLIGI

Zamonaviy ta'lim tizimida STEM dasturlari texnik bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Biroq manbada qayd etilganidek, axloqiy me'yorlar va insoniy qadriyatlar bilan boyitilmagan texnologik bilim jamiyat uchun xavfli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu bois



STEM ta'limni HECI yondashuvlari bilan uyg'unlashtirish ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

AGRAR SOHADA HECI YONDASHUVLARINING AHAMIYATI NIMADA?

Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi inson hayoti bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. HECI yondashuvlarining agrar ta'limda qo'llanilishi ekologik barqarorlik, ijtimoiy adolat va mas'uliyatli resurs boshqaruvi ta'minlaydi. Genom texnologiyalari, sun'iy intellekt va raqamli yechimlar aynan insoniylik va axloq me'yorlari asosida joriy etilishga ijobiy samara beradi. Konsepsiya doirasida HECI tamoyillarini agrar ta'lim mazmuniga moslashtirish va integratsiyalash, talabalar va mutaxassislarda mas'uliyatli qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, ekologik barqarorlik va ijtimoiy adolatga oid qarashlarni mustahkamlash lozim. Ijodiy va innovatsion fikrlashni qo'llab-quvvatlovchi ta'lim muhitini shakllantirish, kelajak avlod manfaatlarini inobatga olgan holda faoliyat yuritish madaniyatini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilanadi.

Mazkur konseptual yondashuv va HECI tamoyillari asosida 24 soatlik

Ulugʻ ajdodlarimiz ilm-fandagi kashfiyotlari bilan dunyo tamadduniga katta hissa qoʻshgan. Ularning anʼanalari bugun ham davom etmoqda. Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori Qalandar Abdurahmonov ana shunday olimlardan biri hisoblanadi. Ustoz koʻp yillik ilmiy izlanishlari asosida jahon tan olgan mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali ilmiy maktabini yaratdi. Olim Samarqand davlat universitetida ham ushbu ilmiy maktabining asoschisidir.

1946-yilda Qashqadaryo viloyatida tugʻilgan Qalandar Abdurahmonov maktab taʼlimidan soʻng G.Plexanov nomidagi Moskva xalq xoʻjaligi institutida oʻqib, aspiranturaga yoʻllanma oldi. Yosh olim 1973-yilda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi va pedagogik faoliyatini Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida boshladi. Oʻqituvchilikdan kafedra mudirligigacha, dotsentlikdan professorlikkacha,

Ilmda maktab yaratgan akademik



fakultet dekani oʻrinbosarligidan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektorligigachagacha, soʻngra G.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent filiali direktori lavozimigacha boʻlgan yoʻlni bosib oʻtdi. U yaratgan ilmiy maktab mehnat munosabatlari, bandlik va inson kapitalini tahlil qilishga boʻlgan yondashuvlarni belgilab beruvchi olimlar-

ni birlashtirdi. Olimning ilmiy merosi - monografiya, darslik va oʻquv qoʻllanmalari AQSh, Germaniya, Fransiya, Portugaliya, Norvegiya, Xitoy, Malayziya, Indoneziya kabi davlatlarda nashr etilgan. Xususan, olimning fundamental «Mehnat iqtisodiyoti» darsligi talabalar, aspirantlar va tadqiqotchilar uchun asosiy qoʻllanma boʻlib xizmat qildi.

Q.Abdurahmonovning ilmiy maktabidan hozirga qadar yuz nafarga yaqin fan doktori va fan nomzodi yetishib chiqqan. Ular dunyoning turli davlatlarida iqtisodiyotning dolzarb muammolari boʻyicha muvaffaqiyatli ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda.

Ustoz rahbarligida soʻnggi oʻn yil-da koʻplab xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar oʻtkazildi. Uning kitoblari iqtisodiyot yoʻnalishidagi koʻplab xorijiy davlatlar oliy oʻquv yurtlarida asosiy darslik sifatida oʻqitilmoqda va xalqaro ekspertlar tomonidan eʼtirof etilgan.

Akademik Q.Abdurahmonov tash-

E'zoz

kilotchi rahbar, mohir pedagog va mehribon murabbiydir. Oʻzbekiston tarixida birinchi xorijiy oliy taʼlim muassasasi – G.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent filiali ochilishiga bosh-qosh boʻlgan.

Olim yurtimizning olis hududlarida muntazam seminar va davra suhbatlari oʻtkazish barobarida, chekka qishloq maktablarining kutubxona fondini boyitish va ilmiy-uslubiy yordam tariqasida oʻz mablagʻlari hisobidan 100 million soʻmlik badiiy kitoblar ham yetkazib bergani tahsinga loyiq.

Q.Abdurahmonov Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi aʼzosi hamdir. Uning «Qadimgi Sharq sivilizatsiyalaridan yodgorliklar» va «Avesto» kitoblari nashrdan chiqdi.

Butun umrini ilm-fan va taʼlim-tarbiyaga baxshida etgan iqtisodchi olim Qalandar Abdurahmonov bugun sakson yoshlik dovonni zabt etgan boʻlsa-da, kuch-gʻayrati va ilmiy mahsuldorligiga havas qilsa arziydi. Umringizga, ilmu ijodingizga baraka bersin, ustoz!

Nodira ULUGʻMURODOVA, Samarqand davlat universiteti inson resurslarini boshqarish kafedrası dotsenti.

Xotira

Pedagoglar sulolasi asoschisi

Bulungʻur tumani tashkil etilganidan buyon uning rivojiga munosib hissa qoʻshib, mehnat qilib kelayotganlar juda koʻp. Ular orasida elim deb, yurtim deb mehnat qilgan fidoyilardan biri, xalq taʼlimi aʼlochisi, tashkilotchi rahbar Abdugʻani Tagmatovning oʻz oʻrni bor.

Tumanda Tagmatovlarni pedagoglar sulolasi deyishadi. Changa-poyon qishlogʻida ildiz otgan bu oila boshida Abdugʻani Tagmatov turibdi. U 1926-yilning 1-iyulida tugʻilgan. Qishlogʻidagi oʻrta maktabni tugatgach, Samarqand davlat universitetining tarix fakultetida tahsil oldi. Ish faoliyatini maktabda oʻquvchilarga tarix fanidan saboq berishdan boshladi. Koʻp yillar dars berish bilan birga direktor oʻrinbosari boʻlib ishladi. Tuman maorif boʻlimi rahbarlari Abdugʻani Tagmatovga ishonch bildirib, tumandagi biroz oqsayotgan 45-oʻrta maktabga direktor etib tayinlashdi. Ustoz qisqa vaqtda maktabni ilgʻorlar safiga olib chiqdi. Keyinchalik 60-oʻrta maktabga direktorlik qildi.

U qayerda mehnat qilmasin, yosh avlodga taʼlim-tarbiya berish, ularni yetuk insonlar etib oʻstirishga eʼtibor qaratdi. Buning uchun jamoaga tajribali, oliy maʼlumotli oʻqituvchilarni ishga taklif qildi. Zarur boʻlganida nafaqat tumandan, balki qoʻshni viloyatlardan kelgan harakatchan oʻqituvchilarga sharoit yaratib berdi. Uning rahbarligida hashar yoʻli bilan maktab sport zali va qoʻshimcha sinfonalari qurildi.

Keyinchalik A.Tagmatov tuman partiya qoʻmitasida boʻlim boshligʻi boʻlib ishlaganida 26-kasb-hunar bilim yurtiga rahbarlik qilganda oliy oʻquv yurtini bitirib kelgan yosh mutaxassislarni bilimi va qiziqishlariga qarab ish bilan taʼminlashga intildi.

Beshafqat oʻlim Abdugʻani Tagmatovni 1978-yilda 52 yoshida bu olamdan olib ketdi. Ammo uning xotirasi oilasi, doʻstlari, shogirdlari xotirasida yashamoqda.

Bu oilani pedagoglar sulolasiga aylantirgan A. Tagmatov oʻz ukalarini ham oʻqimishli, oliy maʼlumotli qilishga intildi.

Bugun bu sulola vakillari yurtimizning deyarli barcha viloyatlarida xalq xoʻjaligining turli sohalari-da mehnat qilib kelmoqda.

Rabbim HOTAMOV, Bulungʻur tumani.

Bolangiz yoʻtalsa...

Uzoq davom etuvchi yoki kuchayayotgan yoʻtal, nafas qisishi yoki nafas olishda hushtaksimon ovoz, haroratning uzoq vaqt tushmasligi, bolaning charchoq, uyquchan yoki injiq boʻlib qolishi, shilliq yoki qon aralash yoʻtal kabi belgilar juda jiddiy signaldir. Bu belgilarga eʼtibor bermaslik nafaqat kasallikni ogʻirlashtiradi, balki davolash muddatini ham uzaytiradi.

ONALAR QAYERDA XATO QILYAPTI?

Ortiqcha oʻrash va «sovqotirib qoʻyaman» degan qoʻrquv. Koʻp onalarda hali ham shunday fikr bor: “Bola sovqotsa, darrov kasal boʻladi”. Natijada bola haddan tashqari oʻrab qoʻyiladi, xona havosi aylanmaydi, bola terlaydi, keyin esa salqin havoda tez sovqotadi.

Amaliyotda esa koʻp shamollash bilan murojaat qilgan bolalarning aksariyatida immunitet pastligi emas, balki notoʻgʻri parvarish aniqlanadi.

XONALARNI SHAMOLLATMASLIK

Koʻp uylarda qishda oylab oynalar ochilmaydi, “shamol uradi” degan qoʻrquv bor.

Natijada havo quruq va mikroblarga boy boʻladi va bola nafas yoʻllari doimiy qoʻzgʻalgan holatda qoladi.

Shuning uchun shamollash bilan shifoxonalarga murojaatlar koʻpaymoqda.

BIRINCHI ALOMATDA ANTIBIOTIK

Juda keng tarqalgan xato: yengil yoʻtal yoki burin oqishidayoq antibiotik berish, qoʻshni yoki dorixona maslahati bilan davolash.

Natijada bolaning tabiiy immun javobi buziladi, oqibatda oddiy virusli infeksiyalar ham ogʻir oʻtadi. Bu esa shifoxonalarga qayta-qayta shamollash bilan keladigan bolalar sonini oshiradi.

OVQATLANISH VA REJIMGA YETARLI EʼTIBOR BERILMASLIGI

Nonushta qilmaslik, shirinlik va gazli ichimliklarni munatazam isteʼmol qilish, kech uxlash, telefon va planshetlarga mukkasidan ketish kabi zararli odatlar organizmning zaiflashishiga olib keladi. Natijada organizm tiklanishga ulgurmaydi va immun tizim zaiflashadi.

Bunday bolalarda shamollash tez-tez va uzoq davom etadi.

Salomatlik burchagi

KASAL BOLANI BOGʻCHA (MAKTAB)GA OLIB BORISH

“Hali uncha ogʻir emas” degan qarash bilan birga kasal bola jamoaga chiqadi, infeksiya boshqalarga yuqadi, keyin butun guruh kasal boʻladi. Mutaxassis-pediatr sifatida xulosa shundan iboratki, shifoxonalarda shamollash bilan murojaatlar koʻpayishining asosiy sababi viruslar koʻpaygani emas, balki profilaktika va toʻgʻri parvarish madaniyati yetishmasligi.

OLDINI OLISH MUMKINMI?

Albatta!
- Xonani muntazam shamollating!
- Qoʻl yuvish odatini shakllantiring!
- Vaktsinatsiyani oʻz vaqtida oʻtkazing (ayniqsa, pnevmokok va grippga qarshi!
- Sogʻlom ovqatlanish va toza havoda jismoniy faollik — immunitetni mustahkamlaydi.
- Chang, tamaki tutuni va allergenlardan himoyalaniib turish muhim.
Nafas aʼzolari kasalliklari bolalarda eng koʻp uchraydigan, lekin eʼtiborsiz qoldirilganda eng xavfli boʻlishi mumkin boʻlgan muammolardan biridir. Erta diagnostika, ota-onalarning diqqati va profilaktik choralar bola salomatligining eng yaxshi kafolatidir.

Dinara ADJABLAYEVA, SamDTU ftiziatriga va pulmonologiya kafedrası oʻqituvchisi.

REKLAMA, EʼLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada ikki marta - chorshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va eʼlonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DAʼVOLAR BOʻLSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Narzullaeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Pulatov Subxonga (2009-yil 3-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Narzullaeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim koʻchasi, 5/1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasida marhum Vaxidov Baxodir Salimovichga (2025-yil 8-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Zikirova Shahlo Habibovna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur koʻchasi, 156-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notariuslarda marhum Xaydarov Urakbayga (2025-yil 12-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Jomboy tuman xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notariuslarga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Past Dargʻom tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Hamidov Norbek Komil oʻgʻli notarial idorasida marhum Kuvanov Jaysinga (2024-yil 21-iyunda

vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Xamidov Norbek Komil oʻgʻli notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Past Dargʻom tumani Juma shaharchasi, Amir Temur koʻchasi, 48-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasida marhum Pardayev Nuriddin Aliyevichga (2019-yil 10-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqloq koʻchasi, 13-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Joʻrayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Madjidov Tolibdjan Nimatovichga (2025-yil 29-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Joʻrayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Oʻzbekiston koʻchasi, 35-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Xaydarov Kamoliddin Fayzullayevichga (2017-yil 19-martda vafot etgan) tegishli

mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqloq koʻchasi, 73-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Joʻraqulovich notarial idorasida marhum Shonazarov Tulqin Alibekovichga (2023-yil 8-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Muhammadiyev Farhod Joʻraqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqloq koʻchasi, 73-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Poʻlatovich notarial idorasida marhum Xitayev Baxodir Esirgapovichga (2025-yil 26-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Toshtemirov Alisher Poʻlatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqloq koʻchasi, 117-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Moʻminqulovich notarial idorasida marhum Niyazov Shodi Mirbabayevichga (2018-yil 9-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Haz-

QURILISH KORKXONALARI DIQQATIGA!

“Bulungʻur dehqon bozori” masʼuliyati cheklangan jamiyatining “Oqtepa” filialida shartnoma asosida qurilish rekonstruksiya ishlari bajarish uchun qurilish tashkilotlari oʻrtasida tender oʻtkaziladi.

Tender 2026-yil 11-mart kuni soat 11:00 da “Bulungʻur dehqon bozori” MCHJ maʼmuriy binosida oʻtkaziladi. Barcha qurilish tashkilotlarini ushbu tenderga taklif etamiz.

Manzil: Bulungʻur tumani “Mehrjon” MFY, Sohibkor koʻchasi.

Murojaat uchun telefonlar: +99899-236-70-07, +99899-028-03-03.

“BULUNGʻUR DEHQON BOZORI” MCHJ MAʼMURIYATI.

ratqulov Mahmud Moʻminqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur koʻchasi, 36-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Moʻminqulovich notarial idorasida marhum Niyazova Kudratga (2020-yil 2-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Hazratqulov Mahmud Moʻminqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur koʻchasi, 36-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Ab-

duraximov Yodgor Karimovichga (2024-yil 28-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqloq koʻchasi, 73-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Boltayeva Musavvarga (2024-yil 25-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy koʻchasi, 15-uy.



Bulung'urda Amir Temurning mudofaa qal'asi

qayta tiklanib, sayyohlik maskaniga aylantiriladi

Amir Temur harbiy yurishlari davomida Eronni qamal qilganda Sheroz qal'asini olishda qiynaladi. Shu sabab 1396-1402-yillarda Samarqandga kirishda mustahkam qal'a bunyod etadi va uni Sheroz deb nomlaydi.

Qal'ani 20 metr chuqurlikdagi Bulung'ur arig'i o'rab turadi. Ariqning eni 18-20 metr bo'lib, hech bir dushmanning qal'aga o'tishi-ga imkon bermaydi. Qal'a atrofiga 9 ta buloq bo'lib, 3 tasi saqlab qolingan. Bulung'ur arig'idan ikki tomonga o'tish uchun juda mustahkam ko'priq qurilgan. Ko'prikning eni taxminan 12 metr bo'lib, bu yerdan Buyuk ipak yo'li o'tgan.

Xo'ja Hofiz Merosiy ziyoratgohi va Sheroz qal'a yodgorligi rahbari Narzulla Qorabo-evning ma'lum qilishicha, Sheroz qal'asi-

ning umumiy maydoni 6-7 gektardan iborat bo'lib, qal'ani o'rab turuvchi Bulung'ur arig'i mo'g'ulcha "Bulung'ur" - "loyqa suv" degan ma'noni anglatadi va umumiy uzunligi 90 kilometrni tashkil etadi. Sheroz qal'a juda mukammal qurilgan bo'lib, bu yerda Amir Temurning qarorgohi, harbiy askarlar uchun oshxona va ko'plab xonalar bo'lgan. Agar qal'a qamalda qoladigan bo'lsa, Bulung'ur arig'idan suv olish uchun yashirin yo'ldan foydalanilgan.

Viloyat turizmni rivojlantirish boshqarma-

si va Bulung'ur tumani hokimligi tumanning Erganakli mahallasini "Turizm qishlog'i"ga aylantirish, sohibqiron Amir Temur tomoni-dan bunyod etilgan va ayni paytda arxeologik yodgorlik sifatida saqlanib qolgan Sheroz qal'a tepaligida qadimiy shaharcha ko'rinishini yaratish, uni yangi sayyohlik yo'nalishi sifatida taqdim etish ustida ish olib bormoqda.

- Erganakli mahallasini "Turizm qish-log'i"ga aylantirish ishlari boshlangan bo'lib, Qur'oni Karimni yetti qiroatda o'qigan alloma Xo'ja Hofiz Merosiy ziyoratgohi hamda Sher-oz qal'a yodgorligi infratuzilmasini yaxshilash uchun 4,5 milliard so'm mablag' ajratilgan, - deydi tuman hokimining o'rinbosari Obid Sattorov. - Ushbu mablag' asosida hudud-ga olib boruvchi yo'llar asfalt qilinib, ko'priq shaklidagi "selfi" zonasi qurish, zinapoya va yo'laklar tashkil etish, Sheroz qal'a hududida qazishma ishlarini olib borish va Amir Temur arkini qayta tiklash ishlari amalga oshiriladi. Xususan, hozirga qadar Erganakli mahallasida tashabbuskor tadbirkorlar tomonidan 20 ta uy-mehmonxona, xorijiy va mahalliy sayyohlar uchun milliy taomlar oshxonalar, o'tovlar, aholi xonadonlarida milliy qadriyatlarga asos-langan milliy kashtachilik va zardo'zlik namu-nalari bilan jihozlangan xonalar tashkil etildi.

Loyiha doirasida Sheroz qal'a hududi tarixiy-me'moriy qiyofasini saqlagan holda to'liq restavratsiya qilinib, Amir Temur davri muhitini aks ettiruvchi ochiq osmon ostida-gi tarixiy-madaniy muzeyga aylantiriladi. Qadimiy shaharcha konsepsiyasi asosida hududda o'sha davrga xos me'moriy ele-mentlar, savdo rastalari, hunarmandchilik ustaxonalari hamda tarixiy sahnalarni namo-yish etish uchun maxsus maydonlar tashkil etiladi. Amir Temur davriga oid lashkarlar yurishi, xon qabuli, harbiy mashg'ulotlar, saroy marosimlari kabi teatrlashtirilgan to-moshalar uyushtiriladi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

▶ Turmush chorahalarida

Kimligini sir tutgan odam

- E, e, Hotamboy, qadamingizga hasanot, keling, keling, - Shodi maxsum quchoq ochib mehmonni kutib oldi.

- Xo'sh, savdo qalay, yurishyaptimi?
- Rahmat uka, yaxshiligingizni unutmayman, ro'zg'orimizga baraka kirib qoldi. Do'kon ochishga yordam qilib, zap yaxshilik qildingizda, bizdan qaytmasa, Xudodan qaytsin, uka! Ayniqsa, mahallaga suv keltirib, yo'llarni asfaltlaganingiz zo'r bo'ldi.
- Shodi aka, siz bemalol savdongizni qilavering, mahalladoshlar minnatdor bo'lsa bo'ldi, men sizga "xarajatlarimni qaytarasiz", deb yordam berganim yo'q. Duo qilsangiz bo'ldi...
- Shodivoy, buyoqqa qarab yuboring, - do'konga kirib kelgan Roziya opa peshtaxtadagi oziq-ovqat mahsulotlariga ishora qildi.
- Kechirasiz, Hotamboy, men hozir. - Shodi maxsum Roziya opaga pesh-voz bordi.
- Mana bu narsalarni «temir daftar»ingizga yozib qo'ysangiz, o'g'lim maosh olsa, kelib to'layman.
- Opa, - Shodi maxsum Hotamboy eshitib qolmasin, deb ovozi ni pastlatdi.
- Shundoq ham qarzingiz ko'payib ketgan, nasiyaga berolmayman.
- O'pang o'rgilsin, uka, mehmon kelib qoldi, yo'q dema, - Roziya opa yalindi. Shodi maxsum Hotamboyning huzurida tortishib o'tirishni ep ko'rmay, noiloj ko'ndi.

- Bo'пти, bu oxirgi marta nasiyaga berishim.
- Rahmat uka, umringdan baraka top, ertaga albatta, qarzarimni uzaman!
Do'kon peshtaxtalariga terib qo'yilgan mahsulotlarga mamnun ko'z yu-gurtirayotgan Hotamboy Shodi maxsum va Roziya opaning gaplarini eshitib qolgandi. Roziya opaning eri nogironligi, yosh nabiralari ko'pligi, yolg'iz o'g'li ishlab, ro'zg'orni zo'rg'a tebratishini yaxshi bilardi.
- Shodi aka, opaning qancha qarzi bor?
- E, ko'p, nasiyaga olgani-olgan, yo'q deymayman muhtoj oilalarga, - Shodi maxsum qarz daftarini ochdi. - Mana, Roziya opa, - u qarzni hisoblab chiqdi. - Bir yarim million ekan.
- O'chirib qo'ying, - Hotamboy cho'ntagidan pul chiqarib, Shodi maxsum-ga uzatdi. - Faqat iltimos, men to'laganimni aytman.
Hotamboy shaharda tijorat firmasi ochgan. Daromadi yomon emas. Qo'li ochiq, topganini qiynalgan mahalladoshlari bilan baham ko'radi. Buni osh-kor qilishni esa istamaydi, faqat mahalla oqsoqoli Ro'zi aka biladi. Yordamni ba'zilar minnat deb tushunishini istamaydi. Guruch kurmaksiz bo'lmaganidek, mahalladoshlari orasida uni zimdan g'iybat qiladiganlar ham bor...
- Bu Hotam degani ja gerdayib ketdimi?
- Puling cho'ntakka sig'may qolsa, sen ham oyog'ing ostini ko'rmay qolasan.
- Ammo minib yurgan mashinasini qara, bir tiyinga qimmat shaloq arava.
- Uyini qara, oddiy kambag'alnikidan farq qilmaydi-ya!
Bunaqa fisqu fasod gaplarni gapiruvchilar ishyoqmas, «yordam ber» deb mahalla ostonasidan nari ketmaydiganlar. Ta'minot tilab his o'qligi, yosh farzandlari ko'pligi, o'zi xastaligini ro'kach qilib keladigan bu odamlar mahal-ladan yordam olgach, hatto oqsoqolga ham rahmat demay chiqib ketishadi. Ular o'zlari olayotgan yordam pulini o'sha Hotamboy ehson qilayotganini xayollariga ham keltirishmaydi.

Tog'aymurod SHOMURODOV.

Elektrobusdagi TILANCHI

▶ Voqea

Samarqand shahrida aholiga jamoat transport xizmati ko'rsatishni yanada yaxshilash maqsadida barcha shart-sharoitlarga ega bo'lgan zamonaviy elektrobuslarning yo'lovchi tashish yo'nalishlariga qo'yilishi yaxshi ish bo'ldi. Ichi keng, shinam, sovutkich va isitkichlar hamda bank plastik kartochkalari orqali yo'l haqini to'lash uskunali bilan jihozlangan elektrobuslar aholining olqishiga sazovor bo'lmoqda.

Ammo yaqinda bir voqeaning gu-vohi bo'ldim. «M-1 «Temir yo'l vokzali bosh bekati – Universitet xiyoboni» yo'nalishi bo'yicha harakatlanib ke-layotgan elektrobusga «Sharq klubi» («Zafar» restorani) bekati bir er-kak kishi chiqib olib, baland ovozda Qur'on tilovat qilib, odamlardan pul tera boshladi.

Men haydovchiga e'tiroz bildirib, jamoat transportida bu holda tilovat qilib, gadoyga o'xshab, yo'lovchilar-dan pul yig'ish mumkin emasligini, uning xatti-harakati O'zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risi-da»gi Qonuni talablariga zid ekanligini aytib, ushbu shaxsni tushirib yuborishni so'raganimda u yelkasini qisishdan boshqa harakat qilmadi. Shu orada men o'z bekatinga yetib kelib, tushib ketdim.


Qayd etmoqchimanki, elektrobusdagi odamning xatti-harakati jamoat tartibining buzilishi hisoblanadi. Haydovchi esa o'zi boshqarib borayotgan transport vositasidagi yo'lovchilarning hayot xavfsizligini (shu jumladan, ularning ma'naviy xavfsizligini ham) ta'minlash majburi-yatiga ega.

Shu o'rinda eslatib o'tmoqchimanki, O'zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonuni 6-moddasi 2-qismida mahalliy hokimliklar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tegishli hududlarda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi uchun javobgar ekanliklari bel-gilab qo'yilgan.

Bunday mas'uliyatdan kelib chiqqan holda yuqorida sanab o'tilgan idoralar mutasaddilari hududlarda, shu jumladan, jamoat transporti-da, shuningdek, fuqarolar to'planib harakatlanayotgan joylarda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlariga amal qili-nishining ahvolini nazoratga olishlari lozim.

Shunday ekan, ichki ishlar idoralari mas'ullari, avtotransport tashki-lotlari rahbarlari va bevosita haydovchilar ham bunday salbiy holatlar-niing oldini olishning jiddiy choralarini ko'rishlari zarur.

Yo'ldosh SUYUNOV,
«Ma'naviyat fidoyisi» ko'krak nishoni sovrindori.



VIJDONNING BUGUNGI SO'ROG'I

Ish vaqtingizning qanchasini

ijtimoiy tarmoqda o'tkazasiz?

Bir kun erinmay hisoblab

ko'ring va o'ylang...

Tumor bobo ko'p vaqtini shahar chetidagi bekatda o'tkazardi. U hech qayerga shoshmas, hech kim bilan gaplashmas, poyezdlarning kelib-ketishini kuzatgancha xayol surardi. Odamlar Tumor bobo haqida bir voqeani ko'p eslaydi.



Aytish-laricha, u shaharchada shifoxona ochilishi-ga bosh-qosh bo'lgan. Yangi qurilgan shifoxonada ishlab yurgan kezlari yosh hamshira bilan tanish-gan.

...Uning ismi Sadoqat edi. Qiz kamgap, ko'zlarida mehr va mato-nat yonib turardi. Tumor Sadoqat-

ga ko'ngil qo'ydi.

Ikki yosh har kuni ishdan keyin shahar chetidagi bekatda gaplashib o'tirardi. Poyezdlar shovqini ichra kelajak haqida orzu qilishardi. Odatiy kunlarning birida Tumor Sadoqatga turmush qurishni taklif qildi. Sadoqatning javobi ma'lum edi. Ammo bu gapni qizning o'z og'zidan eshit-gisi keldi. Qiz indamasdan yuzini yerga qadadi.

Sadoqat shaharda o'qishga borib, uch oy malakasini oshirib qaytishi kerak bo'lib qoldi. Ular o'sha bekatda uchrashishdi. Poyezd kelib to'xtadi. Sadoqat qo'lidagi xatni Tumorga tutqazib, sekingina "Meni shu bekatda kutib olasizmi?" dedi.

Tumor "ha" deb bosh irlg'adi. Poyezd yura boshladi. U uzoqlashgach, Tumor xatni o'qishga tushdi: "Men ketyap-man, lekin bu masofa oramizdagi mehrni yo'qotmaydi. Har kun sizni eslab, bu eski bekatda uchrash-gan lahzalarimizni yodga olaman. Poyezd ovozi men uchun siz bilan

bog'liq xotira. Barcha orzulari-mizni birga amalga oshirishni kutib qolaman".

Oradan uch oy o'tdi. Sadoqat-niing qaytishi yaqin edi. Tumor har kuni bekatda uni kutardi. Ammo...

SADOQAT bekati

Aytishlaricha, Sadoqat qaytishi-dan bir necha kun oldin shaharda ko'cha bezorilari yo'lini to'sib, pul talab qilgan. Pullarini olgach, bunga qanoatlanmasdan uning nomusiga tegmoqchi bo'lishgan. Sadoqat qattiq qarshilik ko'rsatgan. Shunda bosqinchilardan biri pichoq bilan qizni yaralab, yashirinishgan. Sadoqat ko'p qon yo'qotishi nati-jasida vafot etgan.

Bu xabarni eshitgan Tumor bekatga kelib uzoq yig'ladi. Uning ovozi kamib o'zgardi. Qomati egil-di, xiralashgan ko'zlari esa doim uzoqqa - endi hech qachon qayt-mas bo'lib ketgan poyezd tomon tikilardi. Har bir poyezd kelganda u sekin o'rnidan turar, go'yo Sa-d'oqat tushib qoladigandek. Lekin har safar eshiklar yopilar, odamlar tarqalar, umid esa yana bir bor

sinardi.

Bir kuni yomg'irli kechada bekatga bir yigit keldi. Yura-gi g'amga to'la, ko'zlari yerga qadalgan. U o'tirib, og'ir nafas oldi.

- Nima uchun odamlar doim ketadi? - dedi u kutilmaganda. Tumor bobo sokin ovozda javob berdi:

- Chunki qolish ham jasorat talab qiladi.

Yigit boshini ko'tardi. Bu so'zlar unga qattiq ta'sir qildi.

- Men ham ketmoqchi edim, - dedi u past ovozda. - Lekin qayer-ga ekanini bilmayman.

Tumor bobo tabassum qilib, javob berdi:

- Agar qayerga ketayotganing-ni bilmasang, balki hali ketishing kerak emasdir?

Tumor bobo bu yigitda o'zining yoshligini ko'rdi. U o'sha yomg'irli tunda uyiga shoshmadi. Borgan sari tanasi quvatsizlanib borardi. Ammo bunga e'tibor bermasdi. Tun cho'kkanda hushidan ketdi. Bekatda hech kim yo'q edi. Ertalab uni jonsiz holatda bekatdan olib ketishdi.

Uni dafn qilishgach, odamlar eski bekatni "Sadoqat bekati" deb ataydigan bo'lishdi.

Aytishlaricha, tunda "Sadoqat bekati"dan poyezd o'tsa, eski chiroq ostida ikki soya ko'ri-nadi - biri kutgan, biri kechik-kan. Balki Tumor va Sadoqat uchrashgandir...

Abdug'affor ABDURAHMONOV,
Samarqand davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 844 nusxada chop etildi. Buyurtma 87. Hajmi 2 bosma tabaq, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. **Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

D.TO'XTAYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda